



Navoiy viloyati statistika
boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral oylarida Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi





Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi
64,4 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi
60,1 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
1 018,3 ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
105,0 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
1 024,0 mld. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
106,9 %



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 024,0 mlrd. so'mga** yetib, uning nominal hajmi **145,8 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,9 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-fevral oylarida)





Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mldr. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	1 024,0	106,9
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	44,1	112,2
Moliyaviy xizmatlar	225,2	115,8
Transport xizmatlari	185,9	111,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>152,1</i>	<i>100,8</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	44,1	103,8
Savdo xizmatlari	319,9	101,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	18,7	98,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	32,3	105,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	14,6	115,4
Ijara xizmatlari	19,7	109,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	16,3	108,0
Shaxsiy xizmatlar	25,2	99,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	44,6	108,6
Boshqa xizmatlar	33,4	85,6



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **31,2 %** ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **1,4 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari umumiylajmiy hajmda **32,3 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan - **1,3 %**.

2021- yil yanvar-fevral oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**15,8 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**15,4 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**12,2 %**) qayd etildi.

Ko'chmas mulk bilan bog'iq xizmatlar (**1,3 %**) va shaxsiy xizmatlar (**0,5 %**) sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining pasayishi kuzatildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (142,0 %). Ta'lim sohasidagi xizmatlarda biroz o'sish kuzatilgan (1,6 %).




Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keldi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

Avtomobil transporti xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi, % da

2020- y. yanvar-fevral



2021- y. yanvar-fevral



Yuk tashish

Yo'lovchi tashish

2021- yil yanvar-fevral oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **64,3 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **64,7 %** ni tashkil etgan.



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-fevral oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **31,2 %** ni tashkil etdi, bu esa **319,9** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **283,4** mlrd. so'mga yoki umumiylajmi **32,3 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2020- y. yanvar-fevral

Xizmatlar hajmi
283,4 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
103,9 %

Ulushi
32,3 %



2021 y. yanvar-fevral

Xizmatlar hajmi
319,9 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
101,4 %

Ulushi
31,2 %



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtadan uch qismining ko'prog'i, aniqrog'i **82,4 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar–fevral oylarida)

**Ulgurji savdo xizmatlari
(avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo ulushi **81,2 %** ga yetdi.



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-fevral oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **225,2 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **188,4 mlrd. so'mga** teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyl xizmatlar hajmidagi ulushi **22,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **21,5 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **36,8 mlrd. so'mga** ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **15,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning o'sish sur'ati **142,0 %** ga yetgan.



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **4,5 %** oralig'iда qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-fevral oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **93,8 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,8 %** ga to'g'ri kelgan.



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yil yanvar-fevral oylarida)

2020- y. yanvar-fevral

2021 y. yanvar-fevral

39,0
mlrd. so'm

118,2 %

4,4 %

44,1
mlrd. so'm

112,2 %

4,3 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

5,1 mlrd. so'mga



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **97,0 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2020- y. yanvar-fevral



2021- y. yanvar-fevral



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oyida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,9 %** ga yetgan.



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

**29,3
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**32,3
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar-
fevral**



**2021- y.
yanvar-
fevral**

98,4 %

O'sish sur'atlari, % da

105,3 %

2021- yil yanvar-fevral oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **32,3** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **3,2 %** ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-fevral oylarida xizmatlar hajmi **29,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish **98,4 %** darajasida qayd etilgan.



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

34,2

44,1

2020- y.
yanvar-
fevral

2021- y.
yanvar-
fevral



O'sish
sur'ati, % da

104,6

103,8

2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **9,9 mlrd. so'mga** ortdi.



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

85,8 %

2021- y. yanvar-fevral

14,2 %

15,2 %

84,8 %

2020- y. yanvar-fevral

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **85,8 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilda ularning ulushi **84,8 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi
 bu – sog'lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y. yanvar- fevral

**11,7
mlrd. so'm**

108,8 %

1,3 %

**Xizmatlar
hajmi**

**O'sish
sur'ati**

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

2021- y. yanvar- fevral

**14,6
mlrd. so'm**

115,4 %

1,4 %





Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

**1 018,3
ming so'm**

**129,8 ming
so'mga**

2021- yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 018,3** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,0 %** ni tashkil etdi.

105,0 %

Taqqoslash uchun: 2020-yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **888,6** ming so'mni tashkil etgan.

O'sish sur'ati



19

Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

**13 274
birlik**

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

111,1 %

**1 327
birlikga**

**Ularning umumiyligi
sonidagi ulushi**

64,4 %



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **64,4 %**, sanoat **16,3 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,6 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **7,7 %** ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **64,5 %**, sanoat **16,6 %**, qurilish **8,4 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **10,5 %** ni tashkil etgan.


2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-fevral oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomoni-dan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **60,1** % ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

1- mart holatiga

2021 y.

2020 y.

83,9 %

81,7 %

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **83,9** % ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.
Tel.: 79-223-63-31